

30 mart 2022 yil

Guliston sh.

Sirdaryo viloyati hokimligining qurilish bo'yicha Yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyasi, (bundan keyin "Buyurtmachi" deb nomlanadi), Nizomi asosida ish yurituvchi direktor N.Xudoynazarov bir tomonidan va bundan keyin "Bajaruvchi" deb nomlanuvchi "NANOPROEKT VA TEXNOLOGIYA MC" MCHJ, Nizom asosida ish yurituvchi direktor J.Botiraliyev ikkinchi tomonidan Sirdaryo viloyati hokimligining qurilish bo'yicha Yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyasining 2022-yil 25-fevraldagi 14 i/ch-sonli buyrug'iga asosan tuzilgan tanlash komissiyasining 2022-yil 28-martdag'i 55434-sonli bayonnomasiga asosan ushbu shartnomani tuzdilar:

### I. Shartnoma predmeti

- 1.1. Sirdaryo viloyati hokimligining qurilish boyicha "Yagona buyurtmachi" XIK binosi tashqi fasadini joriy ta'mirlash uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish.
- 1.2. Buyurtmachi ko'rsatma beradi va moliyalashtiradi, bajaruvchi ishlarni SHNK 1.03.01-08 «Korxonalar, binolar kapital qurilishining tarkibi, loyihalash hujjatlarini ishlab chiqish, muvofiqlashtirish va tasdiqlash tartibi, normalari va qoidalariga muvofiq nomlangan ishlarni ishlab chiqadi va yakunlaydi va tuzilmalar» asosida bajarilishini o'z zimmasiga oladi.
- 1.3. Shartnomani bajarishdan bir tomonlama rad etishga va xo'jalik shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.
- 1.4. Bajaruvchi buyurtmachining oldindan yozma rozilgisiz ishning bir qismini (Bajaruvchi tomonidan olib borilmaydigan maxsus tadqiqot turlari, ammo shartnomani bajarish uchun zarur) bajarish uchun xo'jalik subpudrat shartnomasini tuzishga haqlidir.

### II. Taraflarning majburiyatlari.

- 2.1. **Bajaruvchi quyidagilarga majburdir:**
  - 2.1.1. Texnik topshiriqlarga va boshqa dastlabki ma'lumotlarga muvofiq ishlarni bajaradi, buyurtmachi bilan bajarilgan ishlarni (bosqichlar) natijalarini muvofiqlashtirish, buyurtmachiga shartnoma bo'yicha bajarilgan barcha xujjatlarini topshiradi.
  - 2.1.2. Bajaruvchi buyurtmachining rozilgisiz uchinchi shaxsga tuzilgan shartnoma bo'yicha rasmiylashtirilgan hujjatlarini topshirishga haqli emas.
  - 2.1.3. Bajaruvchi ushbu obyektda qurilish – montaj, ta'mirlash ishlari yakunlanguniga qadar mualliflik nazoratini olib boradi va ushbu jarayonda asosli bo'lgan o'zgarishlarga belgilangan tartibda xujjatlar rasmiylashtiradi.
  - 2.1.4. Bajaruvchi ushbu obyektda qurilish – montaj, ta'mirlash ishlari yakunlanguniga qadar mualliflik nazoratini olib boradi va ushbu jarayonda asosli bo'lgan o'zgarishlarga belgilangan tartibda xujjatlar rasmiylashtiradi.
  - 2.1.5. Obyektda mualliflik nazoratini olib borish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 20 maydag'i 321-sonli qarori bilan tasdiqlangan 3-ilovasi "Qurilish obyektlarida mualliflik va texnik nazorat olib borish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan olib borilsin.
- 2.2. **Buyurtmachi quyidagilarga majburdir:**
  - 2.2.1. Ish boshlanishidan oldin, bajaruvchiga ushbu shartnoma imzolagan kundan boshlab 10 kun ichida dastlabki ishlab chiqilgan hujjatlarini (texnik topshiriqlarni) taqdim etadi.
  - 2.2.2. Ushbu shartnomaning 3.1 va 3.2-bandlarida nazarda tutilgan tartib va shartlariga asosan bajaruvchiga belgilangan narxni to'laydi.
  - 2.2.3. Buyurtmachi o'z ixtiyoridagi bajaruvchi tomonidan ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etishga majburdir.
  - 2.2.4. Buyurtmachi ishlab chiqilgan hujjatlarini faqat ushbu obyekt uchun ijrochiga topshirishga haqlidir va hujjatlarini tashqi tashkilotlarga va shaxslarga topshirish faqat loyihalash tashkilotining roziligi bilan amalga oshiriladi.

### III. Shartnomaning narxi va to'lovlarni amalgalash tartibi

- 3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha bajaruvchi tomonidan bajarilgan ishlarning qiymati tanlov natijasida aniqlash va tanlov komissiyasining qarori bilan tasdiqlangan (28.03.2022 yil elektron xarid komissiyasining 55434-sonli tanlash bayonnomasi), QQS bilan **6 210 000** (olti million ikki yuz o'n ming) so'm.
- 3.2. Buyurtmachi bajaruvchiga shartnomaning umumiyligi 30% miqdorida, ya'ni **1 863 000** (bir million sakkiz yuz oltmis uch ming) so'm bir martalik avansni o'tkazishni o'z zimmasiga oladi.
- 3.3. Bajaruvchi hujjatlarini joriy hisob raqamiga avans to'lovlari kelib tushgandan so'ng rasmiylashtira boshlaydi.
- 3.4. Buyurtmachi bajarilgan ishlarni hisob-fakturani ikkala tomon imzolaganidan keyin va tasdiqlangan manzilli dasturiga muvofiq shartnoma summasining qolgan qismini moliyalashtiradi.

### IV. Ishlarni etkazib berish tartibi

- 4.1. Bajarilgan ishni qabul qilish va baholash texnik topshiriq talablariga muvofiq belgilanadi.
- 4.2. To'ldirilishi va bajaruvchi tomonidan buyurtmachiga taqdim etilishi kerak bo'lgan hujjatlar ro'yxati texnik topshiriq bilan belgilanadi.
- 4.3. Ish tugagandan so'ng, bajaruvchi buyurtmachiga texnik topshiriqda nazarda tutilgan hujjatlar to'plamini ilova qilgan holda ishni qabul qilinganligi to'g'risidagi aktni taqdim etadi.
- 4.4. Ishlarni bajarish muddati **4 kun**.
- 4.5. Buyurtmachi ishni qabul qilish to'g'risidagi guvohnoma va texnik topshiriqda ko'rsatilgan hisobot hujjatlari olingan kundan boshlab 10 kun ichida qabul qilishni o'z zimmasiga oladi, agar ishda kamchiliklar aniqlansa, ishni qabul qilishdan asosli ravishda rad etiladi.
- 4.6. Agar bajarilgan ishda nuqsonlar aniqlansa, bajaruvchi ularni bartaraf etib, so'ngra 10 kun ichida tuzatilgan ishni buyurtmachiga topshirishga majburdir.

## V. SHARTNOMANI BEKOR QILISH.

- 5.1. Buyurtmachi bajaruvchi hujjatlarini o‘z vaqtida topshirmagan taqdirda, shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqlidir.
- 5.2. Buyurtmachi bajaruvchiga bog‘liq bo‘lidan sabablarga ko‘ra ishni bajarishni bir oydan ortiq muddatga to‘xtatib qo‘ygan hollarda, Bajaruvchi shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqlidir;
- 5.3. Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlariga rioya qilmashlik;
- 5.4. Ushbu shartnomani bekor qilishni boshlagan tomon ikkinchi tomonga yozma ravishda xabar yuboradi.
- 5.5. Shartnomani bekor qilingandan keyin aybdor tomon ikkinchi tomonga etkazilgan zararni shartnomani qiyamatining 20% miqdorida qoplaydi.

## VI. TARAFLARNING MASULIYATI.

- 6.1. Majburiyatlarni lozim darajada bajarmaganligi yoki hujjatlari o‘z vaqtida etkazib berilmaganligi uchun, buyurtmachi foydasiga bajaruvchidan bajarilmagan ish hajmining 0,5% miqdorida jarima ushlab qolinadi, kechiktirilgan har bir kun uchun. Bunday holda, jazoning umumiy miqdori bajarilmagan ish qiyamatining 50 foizidan oshmasligi kerak.
- 6.2. Ish uchun to‘lovni o‘z vaqtida to‘lamagan taqdirda, buyurtmachi bajaruvchiga har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to‘lov miqdorining 0,4% miqdorida jarima to‘laydi, lekin kechiktirilgan summaning 50% dan ko‘p bo‘lidan miqdorda to‘lov.
- 6.3. Shartnomani bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaganligi uchun bajaruvchi va buyurtmachi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq mulkiy javobgarlikni o‘z zimmalariga oladi.

## VII. NIZOLARNI HAL QILISH

- 7.2. Tomonlar o‘rtasida xo‘jalik shartnomalarini bajarish, o‘zgartirish va bekor qilishdan kelib chiqadigan nizo, shuningdek etkazilgan zararni qoplash to‘g‘risidagi nizolar muzokaralar yo‘li bilan, shuningdek da‘vo tartibida hal etiladi.
- 7.3. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararni qoplashda paydo bo‘ladigan nizoli masalalarini tomonlar o‘zaro xal etolmasa ular qonun xujjalarda belgilangan tartibda Sirdaryo viloyati Guliston tumanlararo iktisod sudi tomonidan ko‘rib chiqiladi.

## VIII. FAVQULODDA VAZIYAT HOLATLARI

(Fors-major)

- 8.1. Tomonlar ushbu shartnomani bo‘yicha majburiyatlarni qisman yoki to‘liq bajarmaganliklari uchun javobgarlikdan ozod qilinadi, agar bu tabiiy hodisalar va boshqa fors-major holatlari natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa va ushbu holatlari shartnomaning bajarilishiga bevosita ta‘sir qilgan bo‘lsa:
- 8.2. Ushbu shartnomani bo‘yicha majburiyatlarni bajarish muddati fors-major holatlari kuchga kirgan davrga, shuningdek ushbu holatlari keltirib chiqargan oqibatlarga mutanosib ravishda keyinga qoldiriladi.
- 8.3. Agar fors-major holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko‘proq davom etsa, bajaruvchi va buyurtmachi ishni davom ettirish yoki uni saqlab qolish uchun qanday choralar ko‘rish kerakligini muhokama qiladi.
- 8.4. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, unda tomonlarning har biri shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqlidir.

## XI. BOSHQA SHARTLAR

- 9.1. Ushbu shartnomani amal qiladi muddati 2022 yil 31 dekabrgacha
- 9.2. Ushbu shartnomani bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan 2 nusxada tuzilgan:
- 9.3. Ushbu shartnomaga kiritilgan barcha o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar faqat tomonlarning o‘zaro roziligi bilan amal qiladi va qo‘srimcha bitim shaklida amalga oshiriladi.


## X. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI.

### Buyurtmachi:

Sirdaryo viloyati hokimligining qurilish  
bo‘yicha Yagona buyurtmachi  
xizmati injiniring kompaniyasi  
Guliston sh. Axtamova ko‘chasi 30 uy tel  
Tel. 227-63-86, 227-61-93  
INN: 204773938 OKED 70210  
X/r: 20210000204297552328  
Asaka bank Sirdaryo viloyati filiali  
MFO 00373

### Bajaruvchi:

«Nanoproekt va Texnologiya» MCHJ  
Guliston sh. N.Maxmudov 62-uy  
Tel. (91) 101-02-88, (67) 225-42-64  
x/r 20208 000 500 480 390 001  
STIR 303 388 163  
ATB «Hamkorbank» Gulistan filiali  
MFO 01118  
OKONX 66000



N.Xudoynazarov



J.Botiraliyev

Xuquqshunos:



B. Dusnazarov